

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM  
VAZIRLIGI  
A.QODIRIY NOMLI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**Pedagogika – psixologiya fakul'teti**

**Defektologiya kafedrası**

**MAXSUS PEDAGOGIKA  
fanidan**

# KURS ISHI

**MAVZU: “MAXSUS MAKTABLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI  
TASHKIL ETISH STRUKTURASI”**

**BAJARDI:**

**Mallayev Oloviddin**

**301 guruh talabasi**

**RAHBAR:**

**o'qit X.Muzaffarova**

**J I Z Z A X – 2014**

## **M U N D A R I J A**

### **MAVZU: MAXSUS MAKTABLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH STRUKTURASI**

#### **Reja:**

#### **KIRISH**.....

1. Maxsus maktab internatlarda olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlarning mazmuni.
2. Maxsus maktab internatlarda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va ularga bo'lgan talablar
3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda sinfdan tashqari ishlarning roli.....

#### **XULOSA** .....

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**.....

## KIRISH

O`zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyati safidan o`rin olishi. Mamlakatimizda barcha sohalarning, ayniqsa, ta`lim tizimining tubdan isloh qilinishi, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va “Ta`lim to`g`risida”gi Qonunning dunyoga kelishi, Davlat ta`lim standartlarining joriy etilishi muallim va ustozlar zimmasiga yuksak vazifalar yukladi. Yuqorida zikr etilgan davlat hujjatlarining mazmun-mohiyati, asl maqsadi ham yosh avlodni ma`naviy barkamol inson sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Mamlakatimizda ma`naviy tarbiya, barkamol inson tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Chunki inson jamiyatning tayanchidir. Yurtboshimiz: **“Barkamol avlod kelajak poydevoridir”**-deya bejiz aytmagan. Chunki shaxs kelajak rivojiga keskin ta`sir eta oladi.

Ta`lim-tarbiya sohasidagi ishlarni isloh qilishda O`zbekiston Prezidenti va Oliy Majlis qabul qilgan qaror, qonun va farmonlar dastur amal bo`lib xizmat qilmoqda. Bunda “Ta`lim to`g`risida”, Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standartlari, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi` boshlang`ich ta`lim konsepsiyasi kabi hujjatlar muhim ahamiyatga ega.

O`zbekiston Respublikasining nogironlar bilan olib borayotgan davlat siyosati “O`zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyalanihi to`g`risidagi” qonuni 1991-yil bilan belgilanadi. Bu qonun aholining maskur guruhiga boshqa fuqarolar bilan teng asosda to`laqonli hayot kechirish jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotida faol qatnashish, shuningdek, o`zining fuqarolik majburiyatlarini bajarishga yordam beradigan imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish maqsadida huquq va manfaatlarini himoya qilish bo`yicha tadbirlar tizimini ko`zda tutadi. Bu qonun davlat bilan aholi sog`ligini himoya qilish, nogironlikning oldini olish va nogironlarning jamiyat hayotiga singib ketishi uchun shart-sharoitlar yaratishgan, ijtimoiy jamiyatlar o`rtasidagi munosabatlarni yo`lga qo`yadigan dastlabki jiddiy huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Nogironlikning oldini olish maqsadlarining ijobiy hal qilinishi nogironlarning ijtimoiy tiklanish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish va hayotga tadbiq qilish bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-noyabrdagi 433-son qarori bilan nogironlar ijtimoiy tiklanishining 1996-yildan 2000-yilgacha mo'ljallangan Davlat dasturi qabul qilindi. Ayni vaqtda shu maqsad bilan "Sog'lom avlod" dasturi, "Ulug'bek", "Bolalik", "Yekosan" va shu kabi jamg'armalar tashkil etildi. Bu jamg'armalarning asosiy maqsadlaridan biri eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash va ta'lim tarbiyasi masalalarini hal etish.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganish, eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish, o'z bitiruvchilarini ma'lum bir kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilishlariga erishish, o'qitishning texnik vositalarini takomillashtirish, bog'cha va maktab talimining uzluksizligini ta'minlash, respublika bo'yicha sog'liqni saqlash hamda xalq ta'limi tarmoqlari ishlarini muvofiqlashtirish, erta tashxis diagnozi muammolarini hal etishdan iboratdir.

Surdopedagogika uchun buyuk psixolog defektolog L.S Vigotskiyning "Nuqsonning murakkab tuzilishi" haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga ega.

Ushbu ta'limot bo'yicha, birlamchi nuqson o'z navbatida ikkilamchi nuqsonni yetaklab keladi. Mana shu ikkilamchi nuqson o'z ortidan ko'pgina nuqsonlarni yetaklab kelishi shaxsning me'yorida rivojlanishiga ma'lum to'sqinliklarni yuzaga keltiradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalar uchun ta'lim muassasalari, uning bo'g'inlari birligi va vorisligi asosiga kiritilib, har bir bosqich o'z vazifalarini o'taydi va ayni paytda keyingisi bilan bog'liq. Barcha muassasalar faoliyati asosida yagona maqsad bolalar rivojlanishidagi buzilishlarning oldini olish va korreksiyalash, shaxsni har tomonlama shakllantirish va hayotga, mehnatga tayyorlashdir. Bu umumiy maqsad butun ta'lim tizimi va uning har bir bo'g'ini ishini yo'naltiradi.

## **1. Maxsus maktab internatlarda olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlarning mazmuni.**

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek "Bu zaminda yashayotgan har bir inson o'z farzandining baxtu saodati, fazlu kamolini ko'rish butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o'zini ayamaydi". Shunday ekan, inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi ta'lim muassasalarining asosiy vazifasidir. Bugungi kunda Respublikada amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar bolalardagi psixik xususiyatlarni shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

Alohida yordamga, tarbiyaga muhtoj bolalar Respublikamizda 8 turdagi maxsus maktab va maktab-internatlarda ta'lim-tarbiya olib kelmoqdalar. Xususan kar va zaif eshituvchi bolalar, ko'zi ko'r va zaif ko'ruvchi, kar-soqov bolalar, og'ir nutqiy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar oligofren (aqlan zaif) bolalar uchun yordamchi maktab va maktab-internatlari, harakat tayanchi a'zolari buzilgan bolalar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan (RRS) bolalar uchun tenglashtirilgan, tenglashtiruvchi sinflar, maxsus maktablar, ular qoshida bog'cha va guruhlar tashkil qilingan.

Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining asosiy vazifasi - alohida yordamga muhtoj bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, bolaning bilish faoliyatidagi kamchiliklarini bartaraf etish, undagi barcha a'zolar funksiyalarini faol ravishda yaxshilash, ruhiy jarayonlarni ijobiy tarkib toptirish, kamchiligi bor bolalarda Mustaqil Vatanimiz uchun eng zarur asosiy sifatlarni, barkamollikni hamda axloqiy odat va fazilatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Maktab internat ancha uzoq tumanlarda yashovchi ota-onalar uchun bolalarini o'qitish imkoniyatini taminlaydi.

Interntda tarbiyaviy ishlarning vazifalari quydagilardan iborat:

1. ENB o'quvchilarni aqliy, jismoniy, ma'naviy bilim olish, jamoat va mehnat faoliyatini rivojlantirish bo'yicha maktab ishini davom ettirish va kengaytirish bilan har tamonlama rivojlantirish.

2. Siyosiy etuklik fuqorolik, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash.

3. Mehnatga ijobiy munosabat va o'z mehnati bilan jamiyatga foyda keltirish ehtiyojini tarbiyalash.

4. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning ijobiy va manaviy sifatlarga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish, intizom, hislt va o'zini tutish madaniyati, sinf maktab, oila, jamiyatning me'yor va qoidalari buzilishiga yo'l qo'ymaslikni tarbiyalash.

5. So'zlashuvdan foydalanish imkoniyatini to'ldiruvchi sharoitlar va gaplashish muhitini yaratish yordamida olgan tovushlardan foydalangan holda gaplashuvni rivojlantirish.

6. Zaif eshituvchilar orasida jamoada yashash va ishlashga tayyorlash va bilishni tarbiyalash, o'zaro muomila ishtimoiy muloqatni kehgaytirishga intilishni rivojlantirish, oila tashkilorlari bian hamkorlikda ENB o'quvchilarni va jamoat ijtimoiy adaptasiyasi ustida ish olib borish.

Tarbiyaviy vazifalarni unumli ma'lum shartlarga rioya etilgandagina samarali xal etiladi. Bu avvalo, rivojlanayotgan shaxsni shakllantirishning yagona mexanizm sifatida turli faoliyat turlari, o'yin va muloqatlardan foydalanishni ko'zda tutuvchi internatda tarbiyaga kompleks yondashuvdir.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchi shaxsini shakllantirish, jamoatda uni tarbiyalash so'zlashuv tartibi sharoitida muloqatning etakchi vositasi sifatida so'zlashuvdan foydalanish evaziga, avvalo kommunikativ moslashuv yo'nalishini ko'zda tutadi. Bundan qo'l harakati, daktilalogiyadan yordamchi muloqat vositasi sifatida foydalanish imkoniyati yo'q emas.

Internatda tarbiya jarayoni ustida pedagogik boshqaruv - raxbarlik bola shaxsini nuqson va uning oqibatlariga etibor bermay, imkon qadar talab qilishga asoslangan tarbiyalanuvchilarda mustaqillik va tashabbuskorlikni doimo o'stirishni ko'zda tutadi.

Tarbiya ishi samarasi tarbiyachi tamonidan har bir o'quvchining ishi, yakka hususiyatlarini inobatga olinishiga bog'liq.

Tarbiyachi uchun asosiy, tashqi ( intizomiy ) istakni emas, balki til va soʻzlashuv birligidagi ijtimoiy maʼnaviy tajribani egallash bilan shakllangan tarbiyalanuvchilarning ichki va maʼnaviy asoslari va istaklari jo boʻlgan tarbiyaviy natijaga erishishga intilish hisoblanadi.

Oʻzbekistonda eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarga talim-tarbiya berish uchun turli xil oʻquv maskanlari tashkil etilgan. Shu jumladan kar bolalar maxsus maktab-internatlarida eshitishda va talaffuzida nuqsoni boʻlgan bolalar uchun maxsus tuzilgan reja, dastur va darsliklar asosida bilim beriladi. Ular bir sinfda, Respublikamizda oʻz xususiyatlariga koʻra nuqsonli bolalarga taʼlim-tarbiya berish Konsepsiyasiga asosan 8-12 nafardan bolalar oʻqitiladi. Murakkab nuqsonli oʻquvchilardan iborat sinflarda esa 5-6 nafardan oʻquvchi oʻqitiladi. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar maxsus maktab-internatlarda kar bolalarga 12 yil ichida umumtaʼlim hamda kasb-hunar oʻrgatilib, ularni mustaqil hayotga tayyorlash ishlari olib boriladi. Ushbu maktab-intematlarning oʻquv rejasiga; daktil nutqi, talaffuzini tuzatish labdan oʻqish malakalari, eshitish idrokini rivojlantirish hamda talaffuz kamchiliklarini tuzatish yaʼni korreksiyalash hamda kompensasiyalash uchun individual darslar eshituv idroki va nutq oʻstirish darslariga koʻp vaqt ajratiladi. Shu jumladan mehnat darslariga haftasiga kamida 4-5 soat ajratilgan boʻlib, bunda ilk mehnat ishlari bilan tanishuv va mehnat koʻnikmalari, fazoʻriy tasavvurlarni shakllantirish uchun matematik hisob-kitob turlarining soddadan murakkabga qarab rivojlantirish hamda musiqa ritmik mashʼulotlar orqali malakaviy yordam beriladi. Darsdan tashqari boʻsh vaqtda esa oʻquv faoliyatining turli xil korinishlaridan foydalangan holda tarbiyaviy ishlar keng koʻlamda oʻrgatib boriladi. Bu jarayonlar esa maxsus talim-tarbiya vositalari va oʻquv uslubi va shakllarini talab qiladi. ENB maktab-internatlarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar koʻlamini yaxshilash haqidagi fikrlar, hozirgacha shu sohada qilingan ishlar, ilmiy pedagogik tavsiyalarni etarli darajada emasligiga biz oʻz xulosalarimiz va kuzatishlarimiz asosida ishonch hosil qildik

Keyingi yillarda bir qator olimlarimiz karlikning kelib chiqish sabablari va bunday bolalardagi o'ziga xos rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda bir qator o'quv metodik qo'llanmalar yaratdilar.

Lekin ENB bolalar talim-tarbiyasini olib borishida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasini ishlab chiqish tarbiyaviy ishlar olib borishning pedagogik asoslarini yaratish hozirgi kunda mas'uliyatli vazifadir. Bu vazifalarni hal etish uchun ENB bolalar maktabida talim-tarbiya ishlarini va sinfdan tashqari ishlarni yaxshilash, uni hozirgi kun talabi darajasiga ko'tarish bilan bog'liq bo'lgan ayrim masalalarni ilmiy jihatdan ishlab chiqishni taqozo etadi.

Maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya ishlaridan tashqari doimiy ravishda nuqsonlarni tuzatish bir analizatorning faoliyatini kerak bo'lsa boshqa analizator zimmasiga yuklash (ya'ni kompensasiyalash) jipslash, moslashtirish, yumshatish ishlari olib boriladi hamda ENB o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash ishlari amalga oshirildi.

Maxsus muassasalar bu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim-tarbiya va sinfdan tashqari ishlarning umumiy (prinsiplari) tamoyillari bilan bir qatorda, xususiylar, oligofrenopedagogika, surdopedagogika, tiflopedagogika va logopediya kabi defektologiya sohalarining o'ziga xos prinsiplariga ham tayaniladi.

Jumladan, ta'lim-tarbiyaning korreksion yo'nalishda olib borilishi bolalarning ichki potensial (imkoniyatlarini) qobiliyat va qiziqishlarini ishga solish bolalarga kompleks yondoshish, (masalan, klinik, pedagogik, psixologik) noraso bolalardagi nuqsonlarni iloji boricha tezroq aniqlash, bolalarni mustaqil hayot kechirishlari uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishi, qo'lidan kelayotgan biror kasb-hunarga oid malakalarni o'rgatish, o'quvchilarga yakka dars tartibida (individual) yondoshish haqida bu xususiyatlardan tashqari nuqsonlar, kasallik oqibatida sodir bo'lgan xususiyatlarni ta'lim-tarbiya jarayonida hisobga olish va boshqa prinsiplarini ENB bolalar maktab-internatlarida amalga oshirish talab etiladi.

Chunki har bir toifadagi nuqsonli bolalar xususiyatlariga moskeladigan korreksiya va kompensasiyalash vazifalari ilmiy ravishda hal etilishi lozim.

Ta'lim jarayoni ENB bolalar maktab-internatlaridagi asosiy pedagogik ish bo'lib, metodik ta'limiy, tarbiyaviy, nazariy va individual bilimlar berish jarayonini yoritishi, ENB bolalarni hayotga, mehnatga tayyorlash muammolarini hal qiladi. Umumta'lim fanlarining hajmi va mazmuni darajasi ENB o'quvchilarning aqliy rivojlanishi xususiyatlari va ularning o'quv materiallarini o'zlashtirish imkoniyatlari darajasi bilan belgilanadi.

Kar bolalar maktab - internatlarida ENB bolalarni turli kasblarga tayyorlashning dastlabki bosqichi guruhlar orqali amalga oshiriladi. Aqliy, jismoniy hamda ruxiy rivojlanishida kamchiligi bor bolalarni (korreksiyalash, kompensasiyalash) tuzatish, yumshatish asosan o'qitish va tarbiyalash jarayonida maxsus pedagogik vositalar bilan erishiladi. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarida o'quv mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish, o'zining mazmuni va tuzilishi jihatidan o'rta umumta'lim maktabi dasturlaridan tubdan farq qilib, bu noraso bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Bu maktablardagi ta'lim - tarbiya ishlarining faoliyati xilma-xil va murakkab bo'lganligi uchun olib boriladigan barcha tadbirlarga maktablarda mustaqil o'quv ta'lim-tarbiyaviy ishlarni uyushtirishda mohir surdopedagog o'qituvchi-tarbiyachilarning xabarlik qilishlari talab etiladi. ENB o'quvchilar maktablari darslar bilan bir qatorda o'quvchilar bilan individual (yakka) darslar hamda uy vazifalarini mustaqil tayyorlash ishlari ham asosiy e'tiborga molikdir. Ta'lim jarayonida ENB bolalar, ko'nikma va malakalarni egallash orqali bilish faoliyatlarini kengaytirib boradilar. Shu bilan birga talaffuz nuqsonlarini tuzatish orqali hayotiy tushunchalar ular ongiga singdirib, lug'at boyliklari oshirilib boriladi, Sinf dan tashqari o'quv faoliyatini ruxshunoslik fani nuqtai-nazaridan taxlil qilish, o'quvchilarni faollashtirish yo'lidagi izlanishlar kar bolalar maktab-internatlarida vujudga kelayotgan o'ziga xos muhit ta'lim-tarbiyani tatbiq etish va rivojlantirishga sabab bo'ladi.

ENB bolalar maktablarida vujudga kelayotgan asosiy ziddiyatlardan biri bu ENB o'quvchilarga korreksion ta'lim-tarbiya berish asosida, saqlanib qolgan qoldiq eshitish analizatorlarini rivojlantirib, ularning eshitish idrokini shakllantirish hamda nutq talaffuzini rivojlantirish orqali mustaqil hayotga tayyorlashdir. Lekin bu ish ko'p sermashaqqat mehnatni talab qiladi. Chunki ENB bolalarda ruhiy jarayonlarning yuksak ma'naviy shakllari etishmaydi. Bu jarayonlarni rivojlantirmasdan turib, ularni mustaqil hayotga tayyorlash qiyin kechadi. Kar bolalar maxsus maktab-internatlaridagi tarbiyaviy ishlarning birinchi vazifasi ENB bolalardagi ruhiy depressiv kechinmalarni bartaraf etish, yoki imkon boricha yumshatish, chunonchi anomal bolalarning sog'lom o'sishlari uchun ijobiy muhit yaratish, maxsus korreksion mashqlar orqali mustahkamlash bilan nomutanosib harakatlarini yaxshi yo'lga solish talab etiladi (bu harakatlar asosan artikulyasiya organlari, qo'l, oyoq, gavda va mayda musqo'llar harakatlarini rivojlantirish, jumladan yassi oyoqliklarni korreksiyalash ya'ni musikaviy ritmik harakatlar yordamida maxsus rivojlantiriladi) Maxsus korreksion mashqlar ENB o'quvchilarda o'ziga ishonch ruhini shakllantirib, o'z ovozi va o'zgaruvchan tovushini eshitish idrokini rivojlantirib boradi. Madaniy, gigiyenik malakalarini hosil qilish, jismoniy tarbiya va musikaviy ritmik mashqlarni to'g'ri ilmiy ravishda yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Aqliy tarbiya vazifalaridan biri bolalarni mustaqil faoliyat bilan shug'ullana bilishga o'rgatishdan iboratdir. Bunda bolalarni tevarak - atrof va muhit bilan tanishtirish, aqliy tarbiyaning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Aqliy tarbiya, ENB bolalarning bilish faoliyatini shakllantirib, sezgisini rivojlantirish orqali ulardagi qoldiq eshitish idrokini takomillashtirib borish bilan nutq talaffuzini o'quvchi imkoni darajasida o'zlashtirishiga muvaffakbo'lishiga erishiladi.

Kar bolalar maxsus maktab-internatlarida ta'lim-tarbiya berish uslublari takomillashib borgani sari o'quvchi va tarbiyachilarning roli ham ortib boradi.

Tarbiyachilarning faoliyati o'quvchilarda mustaqil ishlash, topshiriklarga nisbatan ongli munosabatda bo'lish, yoshligidan boshlab o'z-o'ziga talabchanlikni kuchaytirish kabi ko'nikmalarini hosil qilib borishga qaratilgan bo'lishi kerak ENB o'quvchilar maktab-internatlarida o'quvchining diqqatini jalb qila oladigan va ta'lim-tarbiya borligini ta'minlaydigan darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yaratish ham juda muximdir. Bu masalada darsning maksadini to'g'ri belgilash, uni amalga oshirish, darsliklardan o'rinli foydalanish katta ahamiyatga egadir. Darsdan tashqari o'quvchining bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlashda tarbiyachi ishining eng muhim tomoni shundan iboratki, ENB o'quvchilarda mustaqil fikrlash, uylash, o'rtoqlariga va keng jamoatchilikka nisbatan yaxshi muomalada bo'lish, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzatlash kabi ijobiy ko'nikmalarga alohida e'tibor beriladi. Ayni vaqtda tarbiyachi o'zida bor bilimlarni tarbiyalanuvchilariga singdiradi.

Bu esa maktabdagi mustaqil o'quv-tarbiya mashg'ulotlariningsamaradorligi uchun xal qiluvchi omillar qatoriga kiradi.

ENB bolalar maktablarida butun korreksion tarbiyaviy ishlarni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. ENB bolalarning maxsus maktablarida shaxsning muhim sifatlarini shakllantirishga, atrof-muhitga, jamiyatga, kishilarga, o'z - o'ziga to'g'ri munosabatlarni vujudga keltirish va ular haqida tushunchalarni kengaytirib borish, kar bolalar dunyoqarashlarini shakllantirib, nutqini o'stirish va talaffuzga o'rgatib borish, shu bilan birga karlarda saqlanib qolgan qoldiq eshitish analizatorlarini (eshitish qoldiqlarini) korreksiyalash va kompensasiyalashdan iboratdir.

2. Insonga xos to'g'ri xulq-atvor, odob malakalari va odatlarni tarkib toptirish orqali ijobiy xislatlarni tarbiyalash. Jamoat joylarida, oilada va maktabda va boshqa joylarda o'zini tuta bilish, salomlashish odobi, gigiyenik qoidalarga rioya qilish, qo'l oyoq va tana harakatlarini ma'lum bir qolipga solish, mutanosiblikni saqlash uchun musiqali ritmik mashg'ulotlar orqali korreksiyalab borish.

3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar o'zi yashab turgan jamiyatdagi qabul qilingan axloq talablariga javob bera oladigan xususan axloq - odob tajriba ko'nikmalarini egallay olgan, ongi va axloqiy hissi rivojlangan tarzda bo'lishi lozim.

## **2. Maxsus maktab internatlarda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va ularga bo'lgan talablar**

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasida tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirish zaruriyatki, alohida ta'kidlangan: siyosiy tuzumning o'zgarganligi, yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi, tarbiyaviy ishlarni yaxshilashda davr talabiga javob beradigan yangicha tamoyillari g'oyalar, ish uslubiyatlarini ishlab chiqish hamda o'qituvchining ijodkorlik faoliyatini qaytadan qurmoq lozimdir.

Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyati negizi asosida hukumat qarorlarida, xalq ta'limi tizimidan islohotlarda olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari risolasida shunday deb yozgan edi :

Xalqimizning kejalagi uchun suvday, havoday zarur bo'lgan bunday sohalarga birinchi va eng katta homiy–davlatning o'zi. Ma'naviyat juda nozik tarbiyaviy soha buni o'zbilarmonlikka tashlab qo'yib bo'lmaydi.

Maqsadimizga ershishimiz, yangi jamiyat qurishimiz, siyosatda ham, iqtisodda ham, ma'naviyat sohasida ham barcha islohotlarning taqdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq.

Yurtiga, Vatanga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari xalqimizning qon–qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarda asrab avaylash va yanada takomillashtirish farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o'g'il qizlari etib tarbiyalash masalasi, ma'naviyat yuzasidagi ishlarimizning asosiy yo'nalishini tashkil etmog'i lozim.

O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalari yosh avlodga milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, ma'naviyatni milliy merosimiz bilan birgalikda, yosh vatanparvarlarni tarbiyalashda yangicha ish uslublari asosida ijodiy yondashmoqdalar.

Olim, shoir, pedagoglarimiz o'zlarining ilmni izlanishlarida tarbiyaviy tadbirlarni yangicha yo'nalish va tamoyillarini Respublika o'qituvchi–tarbiyachilarga tavsiya etmoqdalar :

S.Ochilovning Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari nomli risolasida I.A.Karimovning asarlarini tahlili hamda O'zbekiston Konstitusiyasidan kelirb chiqib tarbiyaviy ishlarni yangicha yo'nalishlarini asoslab berdi. Bularga:

- Bo'lajak avlodga: hur–fikrlilik, milliy iftixor. Milliy qadriyatlarga hurmat, erkinlik va ozodlik, insonparvarlik, birodarlik va hamkorlik ilmga mehr–muhabbat, iymon va e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, madaniy merosga hurmat, adolatparvarlik va ozodlik, baynalminallik, ijodkorlik va tashabbuskorlik, mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish g'oyalariga sadoqat, musulmon diniga hurmat, Prezident va davlatni qadrlash kabi sifatlarni tarbiyalash.

Bu g'oyalar O'zbekiston Respublikasi istiqlol taraqqiyotining besh tamoyillari talablariga asoslanib olingan bo'lib, uning mezonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish mahorati va qoidalari ham o'z aksini topgandir.

Ijodkor ilg'or o'qituvchi–tarbiyachilar o'z faoliyatlari jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi mahorat tamoyillarini asos qilib oladilar:

–tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishdan maqsad milliy ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish va e'tiqodiga aylantirishdan iborat ekanligi;

–tarbiya jaryonining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish ;

–tarbiyaviy ishlarni o’quvchilar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyani ta’lim bilan uzviyligini ta’minlash;

–tarbiya jarayonida bolalarni tarbiyalangan darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o’stirish ;

–bola shaxsiga hurmat va talabchanlik kabi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tamoyillari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkonga ega bo’lib, uni qay darajada olib borish tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog’liqdir.

Tarbiyaviy ishlar samaradorligini ta’minlovchi muhim omil pedagogik mahoratdir.

Tarbiyachining pedagogik mahorati ko’p qirrali bo’lib u:

–mehribon bolalar hamkorligida;

–o’quv–tarbiya jaaryonidagi hamkorlikda;

–bolalarning qayg’u–hasrati, g’ami va omadsizligiga hamdard bo’lishda;

–muomala madaniyatida;

–chuqur bilim egasi bo’lishida;

–o’qituvchining ruhiy holatida (samimiylilik xayrixohligi, oliyjanoblighi);

–jamoat bilan ishlashda vaziyatni ijobiy tomonga san’atkorona yo’nalitirishda namoyon bo’ladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotida har bir hunar, u yoki bu ijtimoiy siyosiy masalalarni hal qilishda insondan mahorat talab etishini xalq og’zaki ijodiyotida, yozma yodgorliklarda, afsona, doston, ertak, qissa, hikoyat, rivoyatlarda hamda hurfikrli, dono ma’rifatparvar mutafakkirlarining asarlarida turlicha talqin etilgan.

Jamoat tashkilotlari o’quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtlarda olib boriladigan xilma - xil mashg’ulotlarni o’qituvchilar yordamida tashkil qiladilar. Sinfdan tashqari ishlar o’z mazmuniga ko’ra juda xilma-xil: ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ijtimoiy foydali,

badan tarbiya-sog'lomlashtirish ishlari bo'ladi. Sinfdan tashqari ishlar uch xil formada: ommaviy, to'garak va individual formalarda tashkil qilinadi.

**Ommaviy formalar:** Ertaliklar, maktab kechalari, bolalar bayramlari, ko'riklar, quvnoqlar va topqirlar to'garagi, sayr, sinf ki maktab muzeylari, bolalar ishlarining ko'rgazmalari va hokazolar.

To'garak ishlari: maktabdagi har bir to'garak o'zining doimiy ish kunlari va soatlariga ega bo'lishi lozim. To'garakda qat'iy intizom bo'lishi: to'garak a'zolari mashg'ulotlariga kechikmasdan kelishlari, to'garak topshiriqlarini batrtib bajarishlari, to'garakning moddiy boyliklarini ehtiyot qilishlari kerak

**Sinfdan tashqari individual ish:** har bir o'quvchi mayl va qobiliyatlarining rivojlanishiga yordam beradi. Bu ishda sinfdan tashqari o'qish katta ahamiyatga ega. Maktabda har bir sinf uchun sinfdan tashqari o'qish dasturi bor. O'quvchining nima o'qilayotgani va o'qigan narsalarini qanday idrok qilayotganini o'qituvchi bilishi juda muhim. Shuning uchun o'qituvchining sinfdan tashqari o'qishga rahbarligi eng yaxshi kitoblarni targ'ib qilish va o'quvchilarda o'qilgan darsliklarni to'g'ri, chuqur idrok etishni rivojlantirishdan iborat.

Individual topshiriqlarning turlari juda ko'p bo'lib, o'simliklar o'stirish, gullar, sabzavotlar yetishtirish ham ana shunday topshiriqlar jumlasiga kiradi. Individual topshiriqlarda har bir o'quvchining imkoniyat va qiziqishlari hisobga olinsa, ular bolalarning qobiliyatlari, iste'dodlarini o'stirishga yordam beradi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida bolalarning madaniy ehtiyojlari va kamolot darajalarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Ularga muvofiq tarzda ayrim o'qituvchilar, gruppaga yoki butun sinf bilan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni rejalashtiradi.

### **Maktabdan tashqari ishlar**

Maktabdan tashqari ishlar bolalarning yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni ixtiyoriy ravishda, aktiv va mustaqil qatnashishlari sharoitida tashkil qilinadi.

Tuman, shahar, o'lka va respublika hamda maktab o'quvchilari saroylari va uylari – ancha keng tarqalgan maktabdan tashqari muassasalardir. Ular xalq maorifi organlari rahbarligi ostida ishlaydilar.

Maktabdan tashqari muassasa bolalar kutubxonasining ishi diqqatga sazovor. Bolalar kutubxonalari maktablarning I-VIII sinflari o'quvchilariga, shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi kitob o'qiy oladigan bolalarga xizmat ko'rsatadi. Kutubxonaning butun ishi bolalarga yaxshi tarbiya berishga, fan asoslarini o'rganishda o'quvchilarga yordamlashishga, bolalarda o'qish madaniyatini tarbiyalashga, mustaqil ravishda bilim olish malakalarini hosil qilish va mustahkamlashga qaratilgan.

Ko'pgina maktabdan tashqari muassasalarning ishlari misolida, maktabdan tashqari muassasalar o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishida maktab va oilaga jiddiy yordam bermoqdalar degan xulosaga kelish mumkin. O'qituvchi muayyan aholi yashaydigan joyda maktabda qanday muassasalar borligini bilib, ular bilan hamkorlikda qilinadigan ishni yo'lga qo'yadi, o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularni to'garaklarga yo'llaydi. Maktab bolalalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishni rejalashtirishda maktabdan tashqari muassasalardan olishi mumkin bo'lgan yordamni ham nazarda tutadi. Maktabning tarbiyaviy ish rejasini bolalar muassasalarining rejasiga moslashtirish zarur. Maktab tarbiyaviy ish rejasini o'quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqarida olib boriladigan ishlarning forma va metodlarini, ularni oqilona yo'lga qo'yishni o'z ichiga oladi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tashkilotchisi, maktab tarbiyaviy ishining umumiy rejasini tuzadi hamda o'quvchilarga har tomonlama tarbiya berishda maktab o'qituvchilari, maktabdan tashqari muassasalar hamda maktabni otaliqqa olgan tashkilotlarning ishlarini bir-biriga muvofiqlashtiradi.

### **3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda sinfdan tashqari ishlarning roli**

O'quvchilarni har tomonlama etuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o'zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko'p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog'liqdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi, to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishiga zamin yaratadi.

Yaqin vaqtlargacha yordamchi maktab o'quvchilarini xayotiy zarur ko'nikma va malakalarga odatlantirish asosan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning turliga usullarida amalga oshirilgan lekin aniq, ravshan dasturning yo'qligi bu ish xamma maktablarda to'liq ravishda talab darajasida o'tkazilishga imkon bermaganligini tasdiqlash joiz. Amaliyot yordamchi maktablarning ko'pchilik yuqori sinf o'quvchilari uni tugatish arafasida xayot uchun zarur boshlang'ich (xammaga ma'lum) ma'lumotlarni etarli darajada egallay olmosligini ko'rsatdi,.

Insonlarning xayotiy sharoitini doimiy takomillashtirish, kundalik turmushda ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish, axborot oqimining kuchayishi v.b. yordamchi maktablarning o'quv rejasiga katta ishlar qilish zarurligini taqozo qildi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ularning hayot haqidagi ijtimoiy dunyoqarashlarini o'stirish maqsadida zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni nafaqat dars jarayonida balki darsdan keyin ham mustahkamlash zarur.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi.

O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham

o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga o'tlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:

1. Og'zaki ish usullari: majlislar, yig'inlar, ma'ruzalar, kutubxonalar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar.

2. Amaliy ish olib borish usullari turli joylarga sayyohatlarga, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishga taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir.

Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar turli qo'llanmalar, asboblari, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o'rganadilar, o'z-o'zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko'nikmalarini egallaydilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlariga, maktabning joylashgan shart-sharoitlariga, ijodiy birlashmalariga, ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati, o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati, xalq ta'limi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar etakchi shaklga aylanishi kerak

Bunda sinfdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar,

didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashning xilma-xil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi;

- tajribalar, ijodiy tisdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar va hokazolarni tayyorlashni olgan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar sistemasi maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodikasi fani va bo'limiga sinf rahbarlarining ishlari, tarbiyachilar, maktab ma'muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomilasi, adolatli bo'lishi, ta'sir ko'rsata olishi kerak

ENB bolalarni hozirgi zamon ma'naviyati bilan ongini sug'orish, ya'ni singdirish kerak O'quvchilarni qadriyatlarimiz asosida urf-an'alarimiz asosida tarbiyalash har bir o'qituvchining vazifasi.

ENB bolalarni atrofni o'rab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, maktabning muhiti, atrof muhit haqidagi ma'lumotlarni to'g'ri, ongli ravishda o'rganish va qabul qilishga o'rgatish lozim. Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

To'garak turlari:

1. Fan to'garaklari.
2. Mohir qo'llar.
3. Duradgorliq
4. Sport musobaqalari.
5. Badiiy havaskorliq

Ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqning boy, milliy ma'naviy an'analarga, urf-odatilari hamda qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy ishlarni amalda ishlab chiqishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi- shaxsning aqliy-axloqiy tarbiyalashda erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda quyidagi pedagogik talablar mavjud:

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining to'garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak To'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish o'rin tutadi. To'garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni yaxshi bilish kerak Maktabdan tashqari ta'lim o'qishlariga, hohishlariga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarda o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'garak qatnashchilariga talablar qo'yilishi kerak:

1. Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi;
2. Estetik ta'lim;
3. Sayyohli yo'nalishi bo'yicha to'garaklarga qatnashish.
4. Ekologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'garaklar;
5. O'quvchilarni ma'naviy axloqiy yo'nalishi bo'yicha;
6. Xuquqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha;
7. Texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha;
8. Istiqlol bolalari va iste'dodli yoshlar;
9. Iqtisodiy ta'lim.

O'quvchilarning mustaqilligi turli darajada bo'lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilish mumkinligini hisobga olish muhimdir, albatta bu esa ular shaxsining shakllanishiga shubhasiz ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim o'quvchilarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki o'quvchilarning o'zlari oldilarida turgan vazifalarini va ularni hal etish yo'llarini ancha yaxshi tushunadilar.

Maktabda va sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni bir-biriga hurmati, axloqiy sifatlari jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid asosida yoki do'stlari orasida o'rgangan tarbiyasi muomilasiga ta'sir qilish mumkin. Uqituvchi o'quvchilar orasida muomala-madaniyatni shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lgan muomalasini etiborini o'rganishi kerak

O'quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o'qituvchi talabiga ham javob berishi lozim. O'qituvchi talablariga:

1. Darslarga to'liq qatnashish.
2. O'quv qurollari bilan ta'minlanganligi.
3. O'qituvchini diqqat bilan eshitish.
4. Topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish.
5. Tashkiliy ishlarga faol qatnashish.
6. Sinf intizomiga rioya qilish.
7. Tozalikka rioya qilish.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holati rasmiy ijrochilik, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o'quvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'quvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo bo'ladi, bu esa ularni mehnatdagi tashqi faollikni yo'qqa chiqaradi.

Sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarda o'quvchilarning hatti-harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qo'yilganligi xususida e'tirozlar bildirilmoqda.

Mustaqillikni tarbiyalash vazifasi qo'yilmagan, bolaning har bir qadami pedagogning irodasiga bo'ysungan joylarida ana shunday holat mavjuddir.

Xuddi shuning uchun mustaqil tayyorgarlik samaradorligi, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan o'qituvchi, sinf rahbari o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish vositalarini puxta o'ylab tanlaydilar, ularning ishlashi uchun oqilona shart-sharoit yaratishga intiladilar.

Maktab o'quvchilarining mustaqil tayyorgarligiga pedagogik rahbarlik shunday qurilish kerakki, u o'quvchilarni charchatib qo'ymas, doim bir xil tusda bo'lmasin, yoki haddan tashqari oson, aqliy va irodaviy kuch-g'ayratini sarflashni talab qilmaydigan bo'lmasin.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish o'tkazishda tarbiyachi eng muhim vazifa o'quvchilarni o'quv vazifalarini hal etishga o'rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlashdan, o'z hatti-harakatlariga rahbarlikni faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim xayotiy vaziyatlarga o'tkazishdan kelib chiqishdan lozim ekanligini nazarda tutish lozim. Bunda mustaqillik mazmuniga fikrlash faoliyatining mustaqilligi, intizom, uyushqoqlik va o'z-o'zini nazorat qilish kabi to'rt tarkibiy qismi kirishini hisobga olish muhimdir.

Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining muhim va murakkab vazifalaridan biridir. Buning uchun o'quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni va bu jarayonni tahlil etishni uyushtirish zarur. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatlarga duch keladilar.

Shuning uchun ham maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy bo'ladi. Maktab tashqaridagi ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarini o'rganadilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari o'z ishini reja asosida olib boradi va uning bajarilishini ham nazorat qilib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning

umumiy rejasi, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, etakchi ota-onalar qo'mitasi, ish rejalari ishini ham e'tiborga olishi kerak.

Ish reja maktab direktorii tomonidan tasdiqlangan. Ish rejasida boalalrning yosh xususiyatlariga maktabning joylashgan shart-sharoitiga, ijodiy birlashmalariga ilmiy markazlar bilan o'zaro tarqalgan aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda beri boriladi. A. Jo'rayevning «Tarbiyaviy darslarni o'tish» risolasida mustaqillik g'oyasi bilan bog'langan tarbiyaviy tadbirlardan qoidalarga asoslangan qonunlar belgilangan. Ijodkor rahbar hamda ilg'or o'qituvchi tarbiyachilar o'z faoliyatlar ijarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarni asos qilib oladilar:

- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish;

- ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish e'tiqodga aylantirishdan iborat ekanligi;

- tarbiya jarayoni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish;

- tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar jamoasi jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib tarbiyaning ta'lim bilan uzviylikini ta'minlash;

- tarbiyaviy jarayonda bolalarni tarbiyalash darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o'stirish;

- bola shaxsiga xurmat va talabchanlik;

- bolalarning yosh va ruhiy holatini hisobga olish;

- tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tomonlari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, uni qay darajada olib borish sinf rahbari va tarbiyachining pedagogik mohiyatiga bog'liq.

## XULOSA

Har bir o'quvchining ta'lim – tarbiya jarayonidagi faoliyati o'ziga xos bo'lib, bir – birini takrorlamaydi. Shunday ekan, ularning salohiyatini, iqtidorini, jarayondagi harakatini bir xillikda baholash, bir mavqeda ko'rish albatta noo'rin. Har bir o'quvchining mustaqil fikrlash salohiyatini aniqlab olish o'qituvchilar uchun zarurdir.

Ma'lumki, bitiruvchilar mustaqil xayotda duch kelishi mumkin bo'lgan xayotiy vaziyatlar maktab-internatning xamjixat jamoasiga ta'sir qilmay qolmaydi. Shunga muvofiq ravishda muayyan hayotiy vaziyatlarni o'xshatuvchi turli-tuman sinfdan tashqari tadbirlar, rolli va didaktik o'yinlar o'tkazish nihoyatda muhim. Bu ishda o'quvchilarning amaliyotda ko'nikma va malakalarini mustahkamlaydigan ekskursiyalarni o'tkazish katta ahamiyatga ega. Bu masalani «Pochta» mavzusi misolida ko'rib chiqamiz. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar ishga aloqador bo'lgan xatlar bilan tanishadi, xususan, xat yozishni, konvertida manzilgohni to'g'ri to'ldirishni uddasidan chiqadilar. Lekin, agar xar bir o'quvchida bu malaka qanday mustaxkamlanganini taxlil qilsak, buni xamma mustaqil ravishda bajara olmasligi aniq bo'ladi. Bu masalalar ijtimoiy-maishiy yo'nalishdagi darslarda nazariy va amaliy jixatdan qarab chiqiladi. Shu bilan birga, malakalar mustaxkamlanishi, avtomatlashtirilishi uchun sinfdan tashqari ishlar amaliy ravishda muntazam o'tkazilishi kerak Tarbiyachi shu maqsadda, masalan, qandaydir yubiley sanasi bilan bog'liq tabrik (xati) otkritkasini yozish va jo'natish uchun bolalarni uyushtirishi lozim. Bu ishni faqat ona tili darslarida mos mavzu o'rganilgandan va mustaxkamlangandan so'ng ijtimoiy-maishiy yo'nalishga oid bo'lgan mashg'ulotlarda o'tkazish mumkin. Tarbiyachi sinfdan tashqari amaliy mashg'ulotlarda xar bir o'quvchining mustaqillik darajasini bajargan ishlarining to'g'riligini taxlil qiladi.

Bu ishda, shuningdek, ta'lim va tarbiyaning istagan boshqa usullarida yakka, o'ziga xos yondashuvdan, zarur bo'lganda esa ayrim o'quvchilarga yakka tartibda ta'lim berishdan keng foydalanish kerak

Maktab-internatning tarbiyalanuvchi guruhlarida quyidagi mashg'ulotlarni o'rgatib borilishini tavsiya qilish mumkin:

1. Uyni va turar joyini (uylarning turli variantini) mebellarning turlicha to'plamini hisobga olib, maqsadga suvofiq va chiroyli jihozlash.

2. Turar joyini parvarishlashga oid ko'nikma va malakalarga amaliy jixatdan odatlantirish (yig'ishtirish, pol yuvish, oyna artish, mebellarni, uylarni tozalash, kiyim olib qo'yiladigan joyini, oshxonani ozoda tutish, yuvuvchi vositalarni qo'llash va saqlash tartibi haqida ma'lumot berish).

3. Kiyim-boshlarni yuvish va dazmollash (amaliy ish).

4. Kiyimlarni arzimagan tuzatish va tozalash, ularni saqlash tartibi.

5. Taom tayyorlash (mavsumni hisobga olib, kunduzgi rasionning turli-tuman variantlari, bayramga oid tushlik va kechki ovqat, oziq-ovqatlarni tejash va maqsadga muvofiq, to'g'ri olish haqida ma'lumot).

6. Mehmonlarni kutishni va mehmondorchilikda o'zini to'g'ri tutishni bilish (dasturxon tuzash, o'zini dasturxon atrofida tutish mahorati, oshxona uchun belgilangan buyumlardan to'g'ri foydalanish, mehmonlar bilan va mehmonga borganda muomala, munosabatni bilish v.b.).

7. Bolalarni parvarish qilish. Shunday qilib, **ENB** o'quvchi maktabni bitirganida yetarli darajada unga mustaqil xayoti va maishiy mehnati uchun zarur bo'lgan malaka, ko'nikma va ma'lumotlarni egallaydi.

O'quvchilarni tayyor bilimlarni o'rgatishdan tashqari ularni mustaqil, ijodiy bilishga, atrof – muhit orqali muomala madaniyatiga o'rgatish, saqlangan nutq malakalarini oshirib borish o'z fikrini to'laqonli bayon etishga o'rgatish, jamiyatga integrasiya qilish maktab internatlarining vazifasidir. Zero mustaqil va ijodiy fikrlashga ega bo'lgan avlodgina O'zbekiston taraqqiyotiga munosib xizmat qiladi.

### **Kuzatishlar natijasida biz quyidagi xulosalarni ishlab chiqdik:**

1. Darsdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.

2. O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish.
3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.
4. Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.
5. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.
6. Tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish.
7. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash.
8. Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash.
9. Sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Karimov I.A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent. O`zbekiston. 1992 yil.
2. Karimov I.A. «Yangi uyni qurmay turib, eskisini buzmag» – Toshkent: O`zbekiston 1993.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. O`zbekiston. 1995 yil.
4. Karimov I.A. “Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent. 1998 yil.
5. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 yil.
6. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. 2012 yil.
7. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni. 1997 yil.
8. «O`zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» 1997 yil.
9. Abdullayeva K. , A. Nazarov, Sh. Yo`ldoshiyeva “Savodga o`rgatish metodikasi” Toshkent 1996-yil
10. Jo`rayev A.J. Tarbiyaviy darslarni o`tish. T.: “O`qituvchi”, 1994.
11. Imkoniyati cheklangan bolalar va o`smirlar uchun inklyuziv ta`limni tashkil etish to`g`risida muvaqqat NIZOM. O`RXTV T.,19 sentyabr, 2005.
12. Inomova QM. «Oilada bolalarning ma`naviy-axloqiy tarbiyasi» –Toshkent: Fan, 1999,
13. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., 1995
14. Munavvarov A.Q Oila pedagogikasi. T.: “O`qituvchi”. 1994
15. “Maktab va hayot” ilmiy – metodik jurnal. 2011-5-6 son
16. Ochilova M. Ochilova N. «O`qituvchi odobi». – Toshkent: O`qituvchi, 1993
17. Ochilova M. «Axloqiy tarbiya». – Toshkent: O`qituvchi, 1979, – 232 b.

18. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari Nizom. T., 2005
19. Raxmanova V.S Maxsus pedagogika G'ofur G'ulom nashriyoti, Toshkent, 2004
20. Sodiqova G.A., Nurkeldieva D.A. Rivojlanishi orqada qolgan bolalar diagnostikasi (ma'ruzalar matni) T., 2001
21. Surdopedagogika pod red. Nikitinoy M.I. M., Prosvesheniye, 2002
22. Shomaxmudova R. Bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish. T., 2001
23. Shomaxmudova R. Mo'minova L. bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. "Toshkent" o'qituvchi 1993-yil
24. Shodiyeva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish "Toshkent" o'qituvchi 1955-yil.
25. Ta'lim xamma uchun» milliy dasturini joriy qilish bosqichlari. O'RXTV. YuNISEF, RTM T., 2005
26. Pulatova F., Oligfrenopedagogika . G'ofur G'ulom, 2006
27. 14.«Salamanka dekloratsiyasi». –Ispaniya.Salamanka shaxri, 1994 y.
28. 15.Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti Defektologiya kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan ma'ruza matnlari
29. Fayzieva U.Yu., Abdurazakova D.Do'stona munosabat muxitidagi maktab. O'XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisef.XBJ. T., 2005.
30. Fayzieva U., Nazarova D., Kolbaeva X.J.Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi. O'XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisef. XBJ. T., 2005.
- 31.** Hasanbaeva O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.T.1996. Munavvarov A.Q «Oila pedagogikasi». – T.: O'qituvchi, 1994,